



“Barakalla 3.0” aksiyasini o‘tkazish va unda ishtirok etish shartlari

1. Ushbu shartlar “Barakalla 3.0” aksiyasini (keyingi o‘rinlarda - Aksiya) o‘tkazish va unda ishtirok etish tartibini belgilaydi.
2. Aksiyaning amal qilishi hududi - O‘zbekiston Respublikasi, “O‘zMobayl” filialining GSM standarti tarmog‘i.
3. Aksiya o‘tkazilishi davri - 2024-yil 1-apreldan 31-mayga qadar.
4. Aksiya doirasida “Barakali 33/44/55/77/111” tarif rejasiga ulangan (“UZTELECOM”ning boshqa telekommunikatsiya xizmatlari doirasida yagona tarif rejasiga kiritilgan konvergent tarif rejalaridan tashqari) va navbatdagi abonent to‘lovini to‘lash sikli bo‘yicha abonent to‘lovi uchun 3 ta sikl davomida oldindan to‘lovni o‘z vaqtida amalga oshirgan abonentlarga amal qilish muddati cheklangan Internet-paketlar taqdim etiladi.

	Barakali 33	Barakali 44	Barakali 55	Barakali 77	Barakali 111
Abonent to‘lovi (oyiga), so‘m	37 000	48 000	59 000	81 000	115 000
Abonent to‘lovi 3 ta sikl davomida o‘z vaqtida to‘langanda, Aksiya doirasida taqdim etiladigan qo‘shimcha Internet-paket.	9 GB	14 GB	22 GB	35 GB	60 GB
Amal qilish muddati (kun)	30	30	30	30	30

5. Buferli to‘lov muddati - hisob-kitob davri boshlangan vaqtdan boshlab 48 soatni tashkil qiladi. Agar abonent 1 ta yoki 2 ta hisob-kitob davri oxirida belgilangan muddatda to‘lovni amalga oshirmasa, bonus taqdim etilmaydi.
6. Tarif rejasi o‘zgartirilganda taqdim etilgan bonusli Internet-paketlar (keyingi o‘rinda - bonuslar) ularning amal qilish muddati tugagunga qadar saqlanib qolinadi. Agar tarif rejasi 3 ta sikl uchun to‘lov amalga oshirilgunga qadar o‘zgartirilsa, keyingi bonuslar taqdim etilmaydi.
7. «Restart» xizmatidan foydalanganda avval taqdim etilgan bonuslar saqlanib qolinadi va yangi taqdim etilgan bonuslar bilan umumlashtiriladi. Taqdim etilgan bonuslarning amal qilish muddati etib “Barakalla 3.0” aksiyasi bo‘yicha oxirgi ulangan bonusli Internet-paketning amal qilish muddati belgilanadi.
8. Intrnet-resurslar sarflanishining ustuvorligi:
 - “Kunlik” (kunduzgi, non-stop).
 - bonusli Internet-paketlar:
 - “Tug‘ilgan kun”;
 - “MyUZTELECOM” mobil ilovasi bonuslari;
 - eSim+3GB;
 - tarif rejasi doirasidagi Internet-trafik;

- “Barakalla 3.0” aksiyasi bo‘yicha bonusli Internet-paket;
- qolgan Internet-paketlar.

9. “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi Aksiya shartlariga o‘zgartirish kiritish huquqiga ega va ushbu haqda tegishli ma’lumotlar Kompaniyaning www.uztelecom.uz rasmiy veb-saytida joylashtiriladi hamda boshqa aloqa vositalari orqali ma’lum qilinadi. Ishtirokchilar Aksiya shartlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilganligini Kompaniyaning mazkur rasmiy veb-sayti orqali mustaqil ravishda tekshirib turishlari mumkin.

10. Internet-paket faollashtirilgandan so‘ng abonentlarga SMS orqali xabar beriladi.